

TA’LIM JARAYONIDA GENETIK BILIMLARNI O’ZLASHTIRISHDA DIDAKTIK O‘YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH VA UNING AHAMIYATI

Babayeva Zarifaxon Aktam qizi

“Markaziy Qizilqum” milliy tabiat bog‘i xodimi

Kamolova Mahliyo Zokirovna

“Markaziy Qizilqum” milliy tabiat bog‘g‘i xodimi

ANNOTATSIYA

Tezisda oliy ta’lim muassasalarida hamda akademik litseylarda genetika sohasi yuzasidan ta’lim sifatini oshirish, o‘quvchi yoshlarning ilmiy salohiyatlarini rivojlantirish, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarida biologiya fanidan dars berib kelayotgan hamkasblarimizda genetikadan masalalar yechishni o‘rgatishda didaktik o‘yin texnologiyasining yuzasidan ayrim takliflar keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: genetika bilimlarni o’zlashtirish, ta’lim samaradorligi, kasbiy mahorat, metodik yondashuv, faollashtiruvchi didaktik qobiliyat, o‘quvchilar faolligini oshirish, didaktik o‘yin texnologiyasi va uning ahamiyati.

Biologiyani (genetika) sohasini o‘qitishda, avvalo, o‘quvchilarni biologiyaning asosiy g‘oyasi, nazariya, qonuniyatları va tushunchalari, amaliyat, xalq xo‘jaligining turli tarmoqlarida tutgan o‘rni, biologik bilimlar (genetika) sohasini o’zlashtirishning ahamiyati bilan tanishtirish nazarda tutiladi va shu orqali insonning tabiat va jamiyatga bo‘lgan ongli munosabatini tarkib toptirish bilan uzviy bog‘langan holda ta’lim-tarbiyaviy tizim vujudga keladi. Mazkur tizim o‘zida o‘quvchilar tomonidan fan asoslarini mustahkam o’zlashtirishlari barobarida, ilmiy dunyoqarash va tafakkurni shakllantirish, o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy, vatanparvarlik, ekologik, estetik,

iqtisodiy, jismoniy, gigiyenik, mehnat va baynalminal tarbiyalash masalalarini mujassamlashtiradi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o‘quvchilarda biologiya fanini o‘rganishda genetik subyektlar va obyektlarning tuzilishi, rivojlanishi va hayot faoliyati qonuniyatlarini tushunishiga olib keladi. O‘tilayotgan biologiya(genetika) darslarida o‘rganilayotgan mavzuning mazmunidan kelib chiqqan holda ularni yoritish imkonini beradigan tabiiy, tasviriy ko‘rgazmalar, ekran vositalari va qo‘llanmalardan foydalanish natijasida o‘quvchilar ongida shu soha yuzasidan bilim, ko‘nikma va malakalarni yuzaga chiqarishga yordam beradi. Darsning mazmuni va foydalaniladigan ko‘rgazmali vositalar muayyan o‘qitish metodlarini talab etadi. Ta’lim beruvchi ta’lim jarayonida genetik tushunchalarni shakllantirishda metodlarining turlarini, ularga mansub uslublarni yaxshi bilishi lozim. Ta’lim jarayonida genetik bilimlarni o‘zlashtirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklarni bartaraf etishda hamda o‘quvchi, talabalarda genetika sohasiga oid tushunchalarni shakllantirishda qo‘srimcha vositalar yoki uslublardan foydalanish mumkin. Genetik masalalarini o‘ziga xos usullar yoradmida yechish hamda bog‘liqlikni yuzaga keltirish bugungi kun genetika sohasining eng dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

“Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunda uzliksiz ta’lim o‘quvchilarni o‘quv fanlari bo‘yicha muayyan bilimlarini egallashi ta’lim muassasalarida o‘qitiladigan barcha o‘quv fanlari kabi Oliy o‘quv yurtlarida biologiya(genetika) fanini o‘qitishda ham pedagogik texnologiyalardan foydalanish davr talabi. Pedagogik texnologiya- o‘qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida o‘qitish va bilimlarni o‘zlashtirish jarayonida inson salohiyati va texnik resurslarni qo‘llash, ularning o‘zaro ta’sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlardan iborat majmuadir. Bu yerda inson salohiyati deganda, o‘qituvchining pedagogik va o‘quvchilarning o‘quv- bilish faoliyati, texnik resusurslar deganda esa o‘qitish metodlari va vositalari nazarda tutiladi. Biologiya darslarida foydalaniladigan texnologiyalar guruhiiga:

Didaktik o‘yin texnologiyasi;

Muammoli ta’lim texnologiyalari;

Modulli ta'lism texnologiyalari;

Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari;

Loyihalash texnologiyasi;

An'anaviy ta'lism texnologiyalari kiradi. Ta'lism jarayonida biologiya(genetika) bilimlarni o'zlashtirishda didaktik o'yinli darslar orqali quyidagi funksiyalar amalga oshiriladi:

1. Ta'lism jarayonida biologiya(genetika) sohasiga oid ta'lism-tarbiya berish;
2. Shaxsni rivojlantirish;
3. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga yo'naltirish;
4. Ta'lism jarayonida biologiya(genetika) sohasiga oid bilimlarni nazorat va tahlil qilish;

Ta'lism-tarbiya jarayonida bu funksiyalar o'zaro chambarchas holda amalga oshiriladi. Mazkur didaktik o'yinli darslarda hamma o'quvchilar hamkorlikda ishlaydilar, avval o'zlashtirilgan bilimlarini yangi vaziyatlarda qo'llab yangi bilimlarni egallaydilar. Bu esa o'quvchilarning o'z bilimlariga, iqtidoriga ishonch uyg'otadi va har bir o'quvchi sidqidildan hamda jiddiy tayyorgarlik muvaffaqiyat garovi ekanligini anglagan holda bilim olishga kirishadi. Ta'lism jarayonida genetik bilimlarni o'zlashtirishda talabalarda ularga oid bilim va tushunchalarni shakllantirishda o'qituvchilar bir qator qiyinchiliklarga duch keladi. Shu sababli ularda tushunchalarni shakllantirishda didaktik o'yin texnologiyasining (ijodiy o'yin) dan foydalanish ko'proq samara beradi.

1- topshiriq. Quyidagi berilgan atamalar nomlarini to'diring.

	Genetik atamalar	Lug'aviy ma'nosi.
	Genetika	
	Gen	
	Irsiyat	
	O'zgaruvchanlik	

2- topshiriq. Talabalar uch guruhga bo‘linib oladilar. Har bir guruhga nom beriladi. Dominant belgi, retsessiv belgi hamda oraliq irsiylanadigan belgilar. Har bir belgi o‘ziga berilgan rollar asosida tanishtiradi. Masalan.

Dominant belgi:

Men ustunlik qiluvchi
Doim ilg‘or bo‘luvchi
So‘rasalar meni deng
U dominant belgi deng.

Restsessiv belgi:

Men retsessiv belgiman
Doim kuchsiz belgiman
Ammo ba’zi hollarda
Ustunlik ham qilaman

Oraliq belgi:

Quloq soling holimga
Shoshmang kelib yonimga
O‘rtada turidim har on
Nasllar etdi davom

Shuningdek har bir ishtirokchi mavjud jadval asosida o‘ziga xos irsiylanish belgilarni tanlab oladilar.

	Ba’zi organizmlarda belgilarning irsiylanish holatlari	Dominant	Retsessiv	Oraliq irsiylanish
1.	Qulupnay (qizil, pushti va oq mevalari)			
2.	Xushbo‘y no‘xat(qizil, oq, Pushti)			
3.	G‘o‘za tolasining (mall, novvot, oq)			
4.	Yertut (qizil, oq, Pushti)			

Ta’lim jarayonida genetik bilimlarni o‘zlashtirishda didaktik o‘yin texnologiyasidan foydalanish orqali talabalarda muloqotga kirishish kommunikativ – muloqot madaniyatini egallashga yordam beradi, hamda shaxsning o‘z iqtidori bilimini va o‘zligini namoyon etishga imkoniyat yaratadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlab o‘tish joizki, genetika sohasiga oid masalalarni tushuntirishda eng muhim xususiyatlardan biri bu moddiy vositalar bilan to‘liq ta’minlanganlik hamda ta’lim beruvchi shaxsning pedagogik salohiyatining

yuqoriligidir. Ya’ni bunda darslikning mavjudligi, ko‘rgazmali , didaktik va tarqatma materiallardan foydalanish hamda lozim bo‘lganda videodarsliklardan foydalanish , bu esa talaba yoshlarda genetika sohasini yanada chuqurroq o‘rganishga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Inoyatov U.I., Muslimov N.A. va boshqalar. Pedagogika: 1000 ta savolga 1000 ta javob. 2012yil. Toshkent, “Ilm-Ziyo” nashriyoti.
2. Muslimov N.A. va boshqalar. “Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini”. shakllantirish texnologiyasi. 2013 yil. Toshkent, “Fan va texnologiyalar”.
3. Sayidahmedov N.S. Yangi pedagogik texnologiyalar. Toshkent: Moliya, 2003yil.